



# Xalq so'zi

O'zbekiston —  
kelajagi  
buyuk  
davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: info@xs.uz

2026-yil 8-yanvar, № 4 (9175)

Payshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



## PROKURATURA ORGANLARI XODIMLARI VA FAXRIYLARIGA

Hurmatli soha xodimlari, muhtaram faxriylar!

Sizlarni 8-yanvar – O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari xodimlari kuni bilan chin dildan tabriklayman.

So'nggi yillarda mamlakatimizda barcha soha va tarmoqlar qatori prokuratura organlari faoliyatida ham katta o'zgarishlar amalga oshirildi. Tizim xodimlari xalqqa yaqin bo'lib inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini, qonun ustuvorligi va adolatni bevosita joylarning o'zida ta'minlay boshladi.

Ayniqsa, ular doimiy qabullar tashkil etib, fuqarolar muammolarini hal qilishda faol ishtirok etmoqda. Birgina o'tgan yilda qariyb 512 ming nafar fuqaroning buzilgan huquqlari tiklangani, 54 mingga yaqin murojaat, jumladan, salkam 29 ming nafar tadbirkorning masalasi yechib berilgani faoliyatingiz samarasini yaqqol ko'rsatib turibdi.

Qurilish, yer resurslaridan oqilona foydalanish, xotin-qizlar va yoshlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish, yoqilg'i-

energetika va ekologiya yo'nalishlarida, shuningdek, kambag'allikni qisqartirish bo'yicha yangi mexanizmlar joriy etilgani ham ijobiy natija bermoqda.

Bu haqda so'z yuritganda, yashirin iqtisodiyotga barham berish borasida ko'rilgan choralar tufayli Davlat byudjetiga 22 trillion 300 milliard so'm qo'shimcha tushum undirilgani, qurilish sohasida byudjetdan 3 trillion 900 milliard so'm ortiqcha xarajat qilishning oldi olinib, ushbu mablag'lar qo'shimcha ijtimoiy infratuzilma obyektlarini barpo etishga yo'naltirilganini ta'kidlash lozim.

Kriminogen vaziyatni chuqur tahlil qilish va tizimli profilaktika ishlari asosida mahallalarda jinoyatchilikni jilovlash, og'ir toifadagi mahallalar sonini qariyb 1,5 barobar kamaytirishga erishildi.

Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti tomonidan o'tgan davrda 10 mingdan ziyod huquqbuzarlik va jinoyatga chek qo'yildi, davlat va jamiyat manfaatlariga yetkazilgan 1 trillion 800 milliard so'm

zarar undirildi, 13 mingdan ortiq shaxsning faoliyati legallashtirilib, ular tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tkazildi.

Huquqni muhofaza qilish akademiyasida Raqamli kriminalistika ilmiy-tadqiqot instituti, shuningdek, kiberjinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha maxsus tuzilma tashkil etilgani axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida amalga oshirilayotgan xurujlarni aniqlash, ushbu sohada malakali kadrlarni tayyorlashga xizmat qilmoqda.

Hurmatli soha xodimlari! Prokuratura idoralari faoliyati samaradorligini yanada oshirish, tizimga ilmiy yondashuv va ish uslublarini izchil joriy etish, bilimli, tashabbuskor va jonkuyar malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha bugun oldimizda dolzarb vazifalar turganini sizlar albatta yaxshi tushunasiz.

Jumladan, tergov jarayonlarini raqamlashtirish orqali inson huquqlari himoyasini kuchaytirishda prokuratura organlarini ham nazorat idorasi, ham

tergovchilarni tayyorlaydigan tizim sifatida yanada rivojlantirish – bu zamon talabi.

Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish yangi bosqichga ko'tarilayotgan hozirgi davrda prokurorlik faoliyatida ochiqlikni yanada kuchaytirish, sizlar xizmat qilayotgan tizimda va boshqa sohalarda ushbu illatga chek qo'yishda har bir xodim namuna bo'lishi kerak. Chunki el-yurtimiz prokuratura organlarining xizmatchilari timsolida qonun posbonlari va adolat himoyachilarini ko'radi.

Sizlar bunday munosabatni qadrlab, xalqimiz ishonchini oqlash uchun bundan buyon ham siddiqdildan mehnat qilasiz deb ishonaman.

Barchangizni kasb bayramingiz bilan yana bir bor qutlab, sizlarga mustahkam sog'liq, o'oyat mas'uliyatli faoliyatingizda yutuq va omadlar, xonadonlaringizga tinchlik va fayzu baraka tilayman.

**Shavkat MIRZIYOYEV,**  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

## O'zbekiston Respublikasi Prezidentining F A R M O N I

# PROKURATURA ORGANLARI XODIMLARI KUNI MUNOSABATI BILAN BIR GURUH XODIMLARNI MUKOFOTLASH TO'G'RSIDA

Mamlakatimiz prokuratura organlaridagi ko'p yillik fidokorona mehnati, yurtimizda qonuniylilikni va huquq-tartibotni mustahkamlashga qo'shgan katta hissasi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish yo'lidagi ibratli faoliyati, huquqbuzarliklarning oldini olish hamda jamiyatimizda huquqiy madaniyatni oshirish, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash borasidagi alohida xizmatlari uchun quyidagilar mukofotlansin:

### “Mehnat shuhrati” ordeni bilan

**Kalonov Botir Xamzayevich** – O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi faxriylarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash jamoatchilik markazi raisi

### “Mardlik” ordeni bilan

**Yunusov Marat Erkinovich** – O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti boshlig'ining birinchi o'rinbosari

### “Do'stlik” ordeni bilan

**Razakova Gulchexra Narzullayevna** – O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining Toshkent shahar boshqarmasi katta inspektori

### “Jasorat” medali bilan

**Zaripov Jamshid Baxodirovich** – Jizzax viloyati prokuraturasi bo'lim boshlig'i  
**Maxmudov Murodbek Madiyorovich** – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi mas'ul xodimi

### “Sodiq xizmatlari uchun” medali bilan

**Axmedov Baxridin Tojiyevich** – Navoiy ixtisoslashtirilgan prokurori o'rinbosari  
**Raximov Ural Tashbulovich** – Samarqand viloyati Toyloq tumani prokurorining katta yordamchisi  
**Yunusov Baxodir Xoliyrovich** – Surxondaryo viloyati Qiziriq tumani prokurori

### “Shuhrat” medali bilan

**Gaibbayeva Nigina Tayirjonovna** – Namangan viloyati prokuraturasi bo'lim boshlig'i  
**Qobulov Dilmurod Qobulovich** – Sirdaryo viloyati prokurori o'rinbosari

O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti

Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,  
2026-yil 7-yanvar

### Senatda muhokama qilingan

## BEKOR TURISHNING MUDDATI QANCHA?

Mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida soliq yukini qisqartirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish, ularni hisoblash va to'lash tartiblarini yanada soddalashtirish hamda O'zbekistonning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilyapti.

O'z navbatida, tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, “yashirin iqtisodiyot” ulushini qisqartirish orqali sog'lom raqobat muhitini ta'minlash hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida teng sharoitlar yaratish bugungi kunda amaldagi qonunchilikning yanada takomillashtirilishi zaruriyatini yuzaga keltirmoqda.

Shu bois Oliy Majlis Senatining yaqinda bo'lib o'tgan navbatdagi 12-yalpi majlisida

bir qator qonunlar senatorlar muhokamasiga havola qilindi.

Xususan, “O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash orqali aholi bandligini ta'minlashga hamda qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan tovarlar ishlab chiqarishni kengaytirishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida”gi qonun ushbu maqsadlar doirasida ishlab chiqilgan.



### Ochiq parlament

## KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA TAKLIFLAR BERILDI

Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini izchil davom ettirish, mamlakatimizning xalqaro reyting va indekslardagi pozitsiyasini yanada yaxshilash dolzarb masala.

Shu maqsadda yaqinda Prezidentimizning “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida”gi Farmoni qabul qilindi. Unda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining faoliyatini yangi bosqichga ko'tarish, ushbu yo'nalishdagi ishlarni yanada jadallashtirish vazifalari belgilandi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasi a'zolari Korrupsiyaga

qarshi kurashish agentligi hamda Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligida bo'lib, mazkur farmonning mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka tushuntirish, belgilangan vazifalar hamda tasdiqlangan chora-tadbirlarning o'z vaqtida ijrosini ta'minlash yuzasidan muloqot o'tkazdi.

Ochiq va qizg'in muloqotlarda Qonunchilik palatasi deputatlari, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, uning huzuridagi Jamoatchilik kengashi a'zolari, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi xodimlari hamda jurnalistlar ishtirok etdi.



Jarayon

## QADRIYATLAR YARALADIGAN MASKAN

Har yon va hamma joyda bo'y cho'zayotgan yangi turarjoy binolarini ko'rib mushohada qilganingda, minglab odamlarning bir umrlik orzusi ushlayotgani, olam-olam quvonchi ko'z oldingda gavdalanadi. O'zbekistonda uy-joy qurilishi sohasidagi shiddatli o'zgarishlar, avvalo, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ijtimoiy masalalarga e'tibori va xalq turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan siyosati natijasidir. Imtiyozli ipoteka va subsidiyalar orqali uy-joy bilan ta'minlash mexanizmining bosqichma-bosqich rivojlanishi aholining uy-joyli bo'lishi uchun haqiqiy imkoniyatga aylandi.

### Ushalayotgan orzular

Xonadon, bu – to'rt devor va bir tomdan ancha katta tushuncha. U issiq-sovuqdan, yomg'ir shamoldan panoh bo'lguvchi, inson o'zini erkin his qiladigan, ruhi orom topadigan, bolalarini tarbiyalaydigan, oilasini shakllantiradigan, qadriyatlar yaratadigan maskandir.

Shu jihatdan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev davlat rahbari sifatidagi faoliyatining ilk kunlaridanoq bu masalaga alohida e'tibor qaratgani

bejiz emas. 2016-yilning 21-oktabrida “2017 – 2021-yillarda qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyihalar bo'yicha arzon uy-joylar qurish dasturi to'g'risida”gi, oradan roppa-rosa bir oy o'tib “2017 – 2020-yillarda shaharlarda arzon ko'p kvartirali uylarni qurish va rekonstruksiya qilish dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorlar qabul qilindi.



### O'zbekiston sporti:

## ISLOHOTLAR SAMARASI VA TARIXIY YUTUQLAR



### Sarhisob

Sport sohasi mamlakatimizda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri. Bu bejiz emas. Chunki sport nafaqat jismonan baquvvat va har tomonlama yetuk avlodni tarbiyalash, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, balki mamlakat nufuzini xalqaro maydonda yuksaltirishning ham samarali vositasidir. Shu bois yurtimizda ushbu soha rivojiga alohida e'tibor qaratilmoqda.





# BEKOR TURISHNING MUDDATI QANCHA?

 Qonunning maqsadi moliya-xoʻjalik faoliyatini amalga oshirmayotgan tadbirkorlik subyektlarini tugatish tartibini soddalashtirishni, ishlab chiqarishni yuqori texnologiyalar asosida rivojlantirishni, yaylov xoʻjaliklarining moliyaviy ahvolini yaxshilashni hamda yengil sanoat va xizmatlar sohasini, ipoteka bozorini, shuningdek, farmatsevtika mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarni va kreativ parking rezidentlarini qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan soliq imtiyozlari taqdim etilishini nazarda tutadi.

Maʼlumotlarga koʻra, bugungi kunda faoliyat yuritayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT) 283,8 mingtani, faoliyatini vaqtincha toʻxtatganlar esa 286,6 mingtani tashkil etmoqda, ulardan 130,4 ming nafarining faoliyat koʻrsatmaganiga bir yildan oshgan.

Eʼtibor berilsa, faoliyatini vaqtincha toʻxtatib turish muddati

belgilanmaganligi sababli ularning soni faoliyat koʻrsatib kelayotgan YATTlardan oshib ketgan. Bundan koʻrinadiki, faoliyatini toʻxtatganiga bir yildan ortgan aksariyat YATTlarda faoliyatini tiklash istagi yoʻq.

Qonun bilan faoliyat koʻrsatmayotgan tadbirkorlarni roʻyxatdan oʻtkazuvchi organning qaroriga koʻra tugatish muddati uch yildan bir yilga oʻzgartirilmoqda va mazkur normani yakka tartibdagi tadbirkorlarga ham qoʻllash nazarda tutilyapti.

Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Qishloq xoʻjaligi vazirligi huzuridagi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qoʻmitasi muassisligida davlat muassasasi shaklida tuzilgan hududiy yaylov xoʻjaliklarining doimiy foydalanishdagi yaylov yerlarini yer soligʻidan ozod qilish, yagona ishtirokchilari nogironligi boʻlgan shaxslarning jamoat birlashmalarining yer soligʻi



boʻyicha soliq yukini kamaytirish ham koʻzda tutilgan.

Bugungi ekologik muammolarning zarari oqibatlarini kamaytirish yoʻllarini izlash, bu borada qonunchilikka zarur oʻzgartirishlar kiritishni ham davmning oʻzi talab qilmoqda. Senatorlar tomonidan maʼqullangan mazkur qonun bilan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlangan roʻyxat boʻyicha tashabbuskorlar yangi bogʻlarni barpo etishda xorijiy mamlakatlardan (qoʻshni davlatlardan tashqari) payvandtagli mevali koʻchatlarni va payvandtaglarni, payvandustlarini, onalik materiallarini

va texnika vositalarini olib kirishda qoʻshilgan qiymat soligʻidan 2025-yil 1-yanvardan 2028-yil 1-yanvargacha qadar ozod etilishi belgilanmoqda.

Bu ham mamlakatimizda yashil hududlar barpo etishda bir qator qulayliklar yaratishi, shubhasiz.

Bugun mamlakatimiz ulkan qurilishlar maydoniga aylangan. Bu bunyodkorliklar zahirida esa fuqarolarning uy-joyga boʻlgan talabini qondirish, har bir yurtidoshimizning boshpanaga ega boʻlish huquqini taʼminlash yotibdi, desak, mubolagʻa emas. Shu bois “Yangi Oʻzbekiston” massivlarini barpo etish doirasida auktsion savdolarida yer uchastkasini koʻp kvartirali uy-joy qurish uchun ijaraga olgan yuridik shaxslarni yer uchastkasi ijaraga olingan paytdan eʼtiboran ushbu yer uchastkasi boʻyicha yer soligʻini toʻlashdan 12 oy davomida ozod qilish nazarda tutilgan.

Agarda koʻp kvartirali uy-joy

belgilangan muddatda qurilib foydalanishga topshirilmasa, imtiyozdan foydalanilgan davr uchun yer soligʻi 2 baravar miqdorda undirilishi belgilanmoqda.

Mazkur qonun tadbirkorlik subyektlarini qoʻllab-quvvatlash orqali aholi bandligini taʼminlashga hamda yuqori qoʻshilgan qiymatli tovarlar ishlab chiqarilishini kengaytirishga xizmat qiladi, tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlarni yaratishga imkon beradigan soliq majburiyatlarini bajarish boʻyicha tegishli huquqiy munosabatlarni tartibga soladi, faoliyat koʻrsatmayotgan tadbirkorlik subyektlarini davlat reestridan chiqarish tartibini soddalashtiradi.

Asosiysi, ushbu qonun imtiyozlardan oʻz muddatida foydalanish boʻyicha Soliq va Byudjet kodekslaridagi nomuvofiqliklarning bartaraf etilishida muhim rol oʻynaydi.

**Kobul TURSUNOV,**  
**Oliy Majlis Senatining Byudjet va iqtisodiy masalalar qoʻmitasi raisi oʻrinbosari.**



## KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH BOʻYICHA TAKLIFLAR BERILDI

 Dastlab farmonning mazmun-mohiyati, ahamiyati haqida atroflicha soʻz yuritildi.

Aytilganidek, ushbu hujjatda korruptsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini sifat jihatidan yangi bosqichga koʻtarishning ustuvor yoʻnalishlari belgilab berilgan.

Xususan, agentlik, davlat organlari va tashkilotlarining korruptsiyaga qarshi ichki nazorat boʻlinmalari faoliyatini takomillashtirish, raqamli kompaniyas tizimini joriy qilish, “E-qaror” platformasining ochiqligini taʼminlash choralarini koʻrish, korruptsiyaning oldini olishning yaxlit tizimi – Korruptsiyaning oldini olish klasterini barpo etish nazarda tutilgan.

Farmonda muhim chora-tadbirlar nazarda tutilgan. Jumladan, Korruptsiyaga qarshi milliy sertifikatlashtirish menejment tizimi joriy qilinadi. Sohada sunʼiy intellektaga asoslangan Xavf-tahlil markazi ishga tushirilishi orqali barcha idoralar faoliyati yagona platformaga birlashadi.

Deputatlar muloqot chogʻida keng jamoatchilik va fuqarolik jamiyati institutlarini korruptsiyaga qarshi kurashishga jalb etish masalalariga alohida eʼtibor qaratdi. Xususan, korruptsiyaviy huquqbuzarliklar haqida xabar bergan shaxslarni mehnat qonunchiligining buzilishi, shu jumladan, mehnat faoliyatida taʼqib, tazyiq holatlaridan himoya qilish maqsadida ularga agentlik tomonidan himoya orderini taqdim etish amaliyotiga oʻtiladi. Shuningdek, ragʻbatlantirishning real mexanizmlari ishga tushiriladi.

Ishtirokchilarning fikricha, agentlikka yuklatilayotgan qoʻshimcha vazifalar korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida preventiv mexanizmlarni joriy etish, korruptsiyaning oldini olish boʻyicha davlat organlari va tashkilotlarida yagona huquqni qoʻllash amaliyotini shakllantirish hamda uslubiy yordam koʻrsatib borish, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni korruptsiyaga qarshi ekspertizadan oʻtkazish va ulardagi korruptsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf qilish borasidagi faoliyatni muvofiqlashtirish ushbu sohada qonunchilikka rioya etilishini taʼminlaydi.

Shu bilan birga, korruptsiyaviy xavf-xatar va huquqbuzarlik darajasi yuqori boʻlgan davlat organlari va tashkilotlarining korruptsiyaga qarshi ichki nazorat boʻlinmalari tuzilmalariga qoʻshimcha shtat birliklarini tasdiqlash, davlat organlari va tashkilotlarida faoliyati xususiyatlariga mos boʻlgan “kompanyas-nazorat” tizimini yoʻlga qoʻyishga qaratilgan takliflar va tashabbuslarni ishlab chiqish, sohalar va tarmoqlarda korruptsiyaga qarshi kurashish tizimini rivojlantirish masalalari boʻyicha loyiha ofislarini tashkil etish rejalashtirilmoqda.

– Farmon bilan “Korruptsiyaga qarshi kurashishga qoʻshgan hisssasi uchun” koʻkrak nishoni taʼsis etilgani jamiyatda korruptsiyaga qarshi murosasiz munosabatni yanada mustahkamlaydi, – dedi Korruptsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qoʻmitasi aʼzosi Oybek Yoʻldoshev. – Bu, shuningdek, korruptsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishga munosib hissa qoʻshgan davlat organlari va tashkilotlari xodimlari, fuqarolik jamiyati institutlari vakillari hamda faol fuqarolarni ragʻbatlantirishga xizmat qiladi. Zero, barchamizning maqsadimiz ushbu illatga qarshi birgalikda kurashish.

Muloqotlar davomida Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi hamda Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi vazirligi kompaniyas nazorat tuzilmalariga sohadagi ishlarni yanada yaxshilash borasida qator tavsiyalar berildi. Shuningdek, korruptsiyaga qarshi kurashish borasidagi ishlar samaradorligini oshirishda agentlik hamda ichki nazorat tuzilmalari faoliyatini yanada takomillashtirishga qaratilgan qonunchilik takliflari ham ishlab chiqildi.

“Xalq soʻzi”.

### Aks sado

## HAYOTIY TASHABBUSLAR AHOLI FAROVONLIGIGA XIZMAT QILADI

*Prezidentimiz Oliy Majlis va Oʻzbekiston xalqiga Murojaatnomasida joriy yilda 6 ta ustuvor yoʻnalish doirasida olib boriladigan dasturga atroflicha toʻxtalib, bunda oziq-ovqat xavfsizligining muhim tarmogʻi boʻlgan suv, yer va boshqa tabiiy resurslardan foydalanishda samaradorlikni oshirish masalasiga alohida eʼtibor qaratdi.*

Ayniqsa, qishloq xoʻjaligida unumdorlikni oshirish uchun bioinjeneriyadan samarali foydalanish, ilgʻor agrotexnika va suv tejaydigan usullarni faol qoʻllash hamda ilm-fan va innovatsiyalarni keng tatbiq etish muhimligi urgʻulandi. Albatta, bu avvalo, sohada mahsulot yetishtirishni qoʻllab-quvvatlash va mamlakat eksport salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Murojaatnomada muhim yoʻnalishlardan biri – ichki bozorda talabni ragʻbatlantirishda qishloq xoʻjaligida hosildorlikni yangi texnologiyalar asosida oshirish zarurligi taʼkidlandi. Bunda 2026-yilda qishloq xoʻjaligini qoʻllab-quvvatlash uchun 52 trln. soʻm ajratilishi aytilib, oziq-ovqat mahsulotlarini xalqimizga barqaror narxda yetkazib berish ham toʻliq isloh qilinishi boʻyicha vazifalar belgilandi.

Shu oʻrinda, qishloq xoʻjaligida faoliyat olib borayotgan 3,5 milliondan ziyod fuqarolarimiz sohada katta marralarni zabt etayotganini alohida aytish joiz. Xususan, 2025-yilda paxtachilikda dehqon va fermerlarimiz tomonidan 4 mln. tonnaga yaqin, gʻallachilikda 8,4 mln. tonna ximron koʻtarildi, sholchilikda 1,3 mln. tonna hosil olindi hamda oʻrtacha hosildorlik paxtada 46 sentnerni, gʻallada – 85, sholida esa 50 sentnerni tashkil qildi.

Uch yilda 155 ming gektar bogʻ va tokzor barpo etildi, intensiv bogʻlar 150 ming gektarga yetdi. 2025-yilda 3,4 mln. tonna meva, 2 mln. tonna uzum, 19,5 mln. tonna sabzavot, poliz va kartoshka, 1 mln. tonna dukkakli va moyli ekinlar yetishtirildi. Ahamiyatlisi, yil boshidan oziq-ovqat eksporti 37 foizga oʻsib, 3 mlrd. dollarga yetgan, yil yakuni bilan bu koʻrsatkich ilk bor 3,2 mlrd. dollardan oshishi belgilangan va 83 ta davlatga oʻzimizda yetishtirilgan meva-sabzavotlarimiz kirib bormoqda.

Davlatimiz rahbari bu yoʻnalishdagi ishlarni qatʼiy davom ettirish zarurligini aytib, inflyatsiyani jilovlash maqsadida bozorlarimizni asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan yil davomida barqaror



narxda taʼminlash uchun 2026-yildan doimiy intervensiya tizimiga oʻtish zarurligiga urgʻu berdi. Oziq-ovqat jamgʻarmalarga ajratiladigan resursni 2,5 barobar koʻpaytirib, 500 mlrd. soʻmga yetkazish, meva-sabzavotga ixtisoslashtirilgan mingta mahallada sigʻimi 100 tonnagacha boʻlgan kichik soʻvitchilik omborlar barpo etish boʻyicha vazifalar belgilandi.

Yana bir muhim ustuvor yoʻnalish – ekologik muvozanatni taʼminlash, “yashil” energetika va suv resurslaridan oqilona foydalanish masalasi.

Murojaatnomada dunyoda suv tanqisligi muammosi tobora dolzarb boʻlib borayotganiga eʼtibor qaratilib, islohotlarimizning ilk kunlaridanoq suvdan oqilona foydalanish davlat siyosati darajasiga olib chiqilgani aytiladi.

Darhaqiqat, mamlakatimizda keyingi yillarda Prezidentimiz tashabbusi bilan suv resurslarini tejash boʻyicha tizimli islohotlar roʻyobga chiqarilmoqda. Buning natijasida 2020 – 2025-yillarda suvdan samarali foydalanishni taʼminlash va suv yetkazib berilishini kengaytirish maqsadida sohaga 60 trln. soʻmdan ortiq byudjet mablagʻlari hamda 620 mln. dollardan ziyod xorijiy investitsiyalar yoʻnaltirildi. Ahamiyatlisi, 2025-yilga kelib jami suv oʻrillardigan maydonlarning qariyb 60 foizida suvni tejaydigan texnologiyalar qoʻllanilishiga erishildi. Bu yoʻnalishdagi ishlarni izchil davom ettirish global iqlim oʻzgarishi va suv resurslari yildan-yilga kamayib borayotgan bir davrda aholining suvdan samarali foydalanish orqali mahsulot yetishtirish hajmini kengaytirish koʻnikmalarini oshirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, “Oʻzbekiston – 2030”

## MAHALLADA TASHVISH HAM, BAXT HAM BOR

*Mamlakatimiz Prezidenti Oliy Majlis va Oʻzbekiston xalqiga Murojaatnomasida 2025-yilda erishgan yutuqlarimizni eʼtirof etish asnosida, qanchalik ogʻir boʻlmasin, xalqimiz oʻz mashaqqatli va fidokorona mehnati bilan ulkan marralarni zabt etganligini taʼkidladi.*

Eng muhimi, ushbu marralar xalqaro hamjamiyat tomonidan ham tan olinib, mamlakatimiz reytingi yildan-yilga yaxshilanayotgani, obroʻ-eʼtibori ortib borayotgani aytiladi. Albatta, bularning barchasi qalbimizni faxr-iftixorga toʻldiradi.

Ayniqsa, mamlakatimiz rahbarining 2026-yilni yurtimizda “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili”, deb nomlash toʻgʻrisidagi taklifi menga maʼqul boʻldi. Boisi mening 44 yillik mehnat faoliyatimning asosiy qismi mahallalar bilan bogʻliq. Ishimizga taalluqli boʻlmagan topshiriqlar iskanjanidan tortib imkonsizlikdan eshik berkitib oʻtirganimizgacha boʻlgan holatlar xuddi kechagidek koʻz oʻngimda.

Yangi davr islohotlari mahallani jamiyatning chinakam tayanchiga aylantirdi. U aholining tashvish va muammolarini eshitadigan, joyida oʻrganib hal qiladigan kuchga aylandi. “Tashabbusli byudjet”, “hokim yordamchisi” kabi institutlarning joriy etilishi muammolarga yuqorida emas, quyida yechim topilishiga zamin



yaratdi. Turli ijtimoiy “daftar”lar orqali xotin-qizlar, yoshlar, nogironligi borlar, shuningdek, mahalla infratizimlari bilan bogʻliq muammolarga yechim topilmoqda.

Shu oʻrinda viloyatimiz boʻyicha soʻnggi yillarda 400 nafarga yaqin nogironligi boʻlganlarning uy-joy bilan taʼminlanganligini misol sifatida keltirgim keladi. Boshpanasiga ega boʻlgan ushbu fuqarolarning quvonchini, shukronasini, duosini soʻz bilan ifodalash nihoyatda mushkul. Ularning hayotdan roziligi taʼminlanib, ertangi kunga ishonchi mustahkamlandi. Chunki uy-joy boshpanagina emas, bu Vatan ichidagi kichik vatan. Uyi bor odam oʻzini toʻlaqonli vatanini bor deb his etadi. Esimda, “Endi biz ham mehmon chaqira olamiz” degan edi 12 joyda ijarama-ijara

yashagan nurotalik nogironligi bor ayol uy-joy kalitini olayotib.

Darvoqe, mehmon haqida soʻz ketarkan esimga tushdi: besh-olti yil ilgari Navoiy viloyatida beshtagina mehmonxona bor edi. Mehmon keladigan boʻlsa, oldindan buyurtma berib qoʻyardik. Qishloq tumanlarini-ku gapirmasayam boʻladi. Bugun viloyat markazi va tumanlarimizda 80 ga yaqin katta, 100 dan ziyod mehmon uylari barpo etilgan. Sarmishsoy, Nurota, Toʻdakoʻl, Aydarkoʻl, Oltinsoy, Langar, Sentob va boshqa hududlarda tarixiy, ekoturizm, safari, playaj va ziyorat turizmi zonalar yaratildi. 2016-yil bilan solishtirsa, sayyohlar oqimi saldam oʻn baravarga oshibdi. Bu oʻz-oʻzidan odamlar uchun yangi ish oʻrni, oilalarga daromad manbai demakdir.

Albatta, bularning barchasi mahallalarimizda ijtimoiy-maʼnaviy muhitning sogʻlomlashishida muhim omil boʻlmoqda. Qolaversa, mahallalar faoliyatini yanada takomillashtirish borasida amalga oshirilgan islohotlar fuqarolarimizning mahallalarga ixlosi, ishonchini ortirdi.

Jamiyat esa ixlos va ishonch tufayli yuksaladi.

**Normurod ISOQOV,**  
**xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashi deputati.**

## STRATEGIYA MUHOKAMASIDA DEPUTATLAR YANADA FAOL BOʻLADI

*“Oʻzbekiston – 2030” strategiyasida barqaror iqtisodiy oʻsishni taʼminlash, zamonaviy taʼlim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini shakllantirish, ekologik barqarorlikni kuchaytirish, adolatli va xalqchil davlat boshqaruvini yoʻlga qoʻyish, mamlakat suvereniteti va xavfsizligini kafolatlari taʼminlash davlat va jamiyatni modernizatsiya qilishning ustuvor yoʻnalishlari sifatida belgilandi.*

Strategiya doirasida amalga oshirilgan islohotlar natijasida qator muhim ijtimoiy-iqtisodiy koʻrsatkichlarda sezilarli oʻsish qayd etildi. Jumladan, kambagʻallik darajasi 11 foizdan 6,8 foizgacha pasaydi, yalpi ichki mahsulot hajmi 107,5 mlrd. AQSH dollaridan 140 mlrd. dollarga yetdi. Eksport hajmining 24,9 mlrd. dollardan 27,9 mlrd. dollarga oshgani tashqi iqtisodiy faoliyat faollashganidan dalolat beradi.

Yuqoridagi tahlillar shuni koʻrsatadiki, “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasi doirasida salmoqli natijalarga erishilgan boʻlsa-da, jahondagi global oʻzgarishlar, ichki demografik jarayonlar va texnologik taraqqiyot uning yangi talablari asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda. Shu bois Strategiyani yangilash, 2026



– 2030-yillarga moʻljallangan aniq natijaga yoʻnaltirilgan samaradorlik koʻrsatkichlarini belgilash mamlakatning barqaror va inklyuziv rivojlanishini taʼminlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, mamlakatda aholi sonining jadal oʻsishi ham strategik yondashuvlarni qayta koʻrib chiqishni taqozo qiladi. 2023-yilda 36,7 mln. nafarni tashkil etgan doimiy aholi sonining 2030-yilga borib 41 milliongacha oshishi prognoz qilinmoqda. Bu esa urbanizatsiya, bandlik, taʼlim va daromadlar masalalarida uzoq muddatli va kompleks yechimlarni talab etadi. Global raqobat sharoitida raqamli iqtisodiyot, sunʼiy intellekt, kibernetik va maʼlumotlar boshqaruvi sohalari jadal rivojlantirish inson kapitali sifatini

oshirishning muhim shartlaridan biri sifatida namoyon boʻlmoqda.

Takomillashtirilayotgan Strategiya mamlakatning oʻrta muddatli rivojlanish yoʻlini yanada aniq belgilab, iqtisodiy oʻsishni jadallashtirish, xususiy sektor rolini oshirish, inson kapitaliga sarmoyalarni kuchaytirish, hududlarni mutanosib rivojlantirish va ijtimoiy adolatni taʼminlash kabi ustuvor yoʻnalishlarni qamrab olishi bilan ahamiyatlidir.

Shu oʻrinda taʼkidlash joizki, yangilananayotgan “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasining muhokamasida xalq vakillarining faol ishtirok etishi alohida ahamiyatga ega. Chunki deputatlar joylarda aholi bilan bevosita muloqot qiladi, muammolari, taklif va tashabbuslarni chuqur his etadi. Shu bois Strategiya

loyihasi muhokama jarayonida parlament aʼzolarining amaliy takliflari dasturlam hujjatning yanada hayotiy va xalqchil boʻlishiga xizmat qiladi. Strategiya loyihasining “uzbekistan.gov.uz” hamda “regulation.gov.uz” platformalariga joylashtirilgani ochiqlik, oshkorlik va jamoatchilik ishtirokini taʼminlash yoʻlidagi muhim qadam ekanini alohida qayd etish lozim. Bu har bir fuqaroga mamlakat kelajagini belgilashda oʻz fikrini bildirish imkonini beradi.

Yana da maromiga yetkazilayotgan “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasi, bu – faqat rejaralar majmuasi emas, balki erishilgan natijalarga tayanadigan, xalq manfaatlarini ustuvor qiladigan va Yangi Oʻzbekiston taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqadigan muhim dasturiy hujjat. Uning muvaffaqiyati esa davlat organlari, deputatlar va jamoatchilikning hamijhat va faol ishtirokida namoyon boʻladi.

**Gulchehra JOʻRAYEVA,**  
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.**



# QADRIYATLAR YARALADIGAN MASKAN



Ularda qaysi hududda, qancha xonadon qurilishi, necha qavatli boʻlishidan tortib, to turarjoy qurilishiga safarbar etilgan tashkilotlar va moliya muassasalarining ishtirok etish mexanizmi, moliyaviy manbalari, sotish shartlari, imtiyozlari aniq hisob-kitob asosida belgilab berildi.

Davlat rahbarining ikkinchi qaroriga bir yil ichida ikki bora tuzatish – yangi meʼyorlar kiritildi. Dastlabki qarorda dasturning strategik asosi belgilanib, aholining uy-joyga boʻlgan ehtiyojini qondirish, shahar infratuzilmasini rivojlantirish va qurilish sohasini jadallashtirish, zamonaviy namunaviy loyihalar asosida koʻp qavatli uylar qurish, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari bilan toʻliq taʼminlash vazifalari aniqlab berildi.

Bir yarim oy ichida ayni nomdagi qaror yangilanib, mazkur dasturni samarali amalga oshirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Unda qurilishni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, ipoteka kreditlarini aholi uchun yanada qulay shartlarda taqdim etish, pudrat tashkilotlarini qoʻllab-quvvatlash hamda mahalliy qurilish materiallaridan foydalanishni kengaytirish nazarda tutili. Yangi uy-joylarni qurish bilan bir qatorda, hududlarni kompleks obodonlashtirishga alohida eʼtibor qaratildi.

Biroz vaqt oʻtib, ipoteka kreditlari boʻyicha boshlangʻich toʻlov miqdorini kamaytirish, kredit muddatlarini uzaytirish orqali aholining keng qatlamlari uchun uy-joy sotib olish imkoniyatlarini oshirish belgilandi. Shuningdek, eski koʻp kvartirali uylarni rekonstruksiya qilish, kapital taʼmirlash va muhandislik tarmoqlarini yangilash ishlarini kuchaytirish vazifalari belgilandi. Qurilish sifati ustidan nazoratni kuchaytirish ham ushbu qarorning muhim jihatlardan biri boʻldi.

Nomlari tilga olingan qarorlar oʻzaro bogʻliq holda amal qilib, joylarda arzon koʻp kvartirali uy-joylar qurishning yaxlit tizimini shakllantirdi, infratuzilma va ijtimoiy obyektlar qurilishi asnosida aholi turmushi yaxshilanishi koʻzda tutilgan milliy doktrina ishga tushirildi, deyish mumkin.

Bu hujjatlarda, tabiiyki, “arzon” soʻzining qoʻllanilishi eʼtiborni tortadi. “Arzon” bu oʻrinda sifatdan voz kechish emas, balki daromadga moslik, ijtimoiy adolat mezonini sifatida olingan. Maqsad sari yoʻnalish, aholini uy-joy bilan taʼminlash, ipoteka sohasidagi ilk yutuqlar zahirida qatʼiyat yotadi. Uningsiz maqsad shiorga aylanib, quruq orzu boʻlib qolaveradi. Bu haqiqat chuqur infratuzilmasini rivojlantirish va qurilish sohasini jadallashtirish, zamonaviy namunaviy loyihalar asosida koʻp qavatli uylar qurish, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari bilan toʻliq taʼminlash vazifalari aniqlab berildi.

2019-yilning noyabrda imzolangan “Ipoteka krediti mexanizmlarini takomillashtirishga oid qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi Farmon va unga 2020-2021-yillarda ilova qilingan qoʻshimchalar ana shu qatʼiyatning ifodasi boʻldi. Shu zaylda Oʻzbekistonda imtiyozli ipoteka tizimi yaratildi. Bu tizimda aholi ipoteka kreditini toʻliq yoki qisman davlat yordami bilan emas, balki tijorat banklari kreditlari orqali bozor prinsiplari asosida olishi mumkin boʻldi. Xususiy qurilish pudrat tashkilotlari tomonidan qurilgan uylarni sotib olish uchun ham bozorda ipoteka kreditlari ajratilishiga ruxsat berildi. Odamlar oʻz xohishiga koʻra uy tanlash imkoniyatiga ega boʻldi.

Jismoniy shaxslarga koʻp qavatli uylardagi kvartiralarini sotib olish uchun ipoteka kreditlari berishning yangi tartibi amalga kiritildi – dastlabki badal va kredit shartlari yaxshilandi va qurilish holati toʻliq boʻlmay turib uy olish imkoniyati yaratildi.

Aholining boshlangʻich toʻlovi va foiz toʻlovlari subsidiyalash tartibi amalga kiritilishi kreditlardan foydalanishni yengillashtirdi. Xususiy pudrat tashkilotlariga tijorat banklari bilan hamkorlikda koʻp qavatli uylar qurish uchun kreditlar va kafolatlar berish mexanizmi joriy etildi.

Bu ikkinchi bosqichda asosiy eʼtibor aholini uy-joy bilan ipoteka va bank moliyalashtirishi orqali taʼminlash tizimiga oʻtishga qaratildi. Davlat oʻzining ijtimoiy vazifalaridan kelib chiqib, imtiyozni barchaga emas, balki kam taʼminlanganlar, yosh oilalar, uy-joyga muhtoj fuqarolarga manzilli tarzda berishga qaratdi.

2020 – 2023-yillarda turarjoy dasturining bosh markaziga banklar chiqdi. Ular uy-joy siyosatidagi ishtirokini faollashtirdi, ipoteka mahsulotlarini koʻpaytirdi, kredit berishda bozor mezonlarining joriy etilishi asosiy yoʻnalishga aylandi. Natijada shaharlarda koʻp kvartirali uylar qurilishi jadallashdi, infratuzilma (yoʻl, maktab, bogʻcha) bilan birga qurish talabi kuchaytirildi.

**“ Oʻzbekiston 2040-yilga qadar har yili quriladigan uy-joylar sonini ikki baravar oshirib 421 mingga yetkazish, ipoteka kreditlari portfelini esa 56,7 mlrd. AQSH dollarigacha koʻpaytirishni moʻljallamoqda. Jumladan, yirik aglomeratsiyalarni qoʻllab-quvvatlash, urbanizatsiya jarayonlarini uygʻunlashtirish, ulushli qurilishda ishtirok etayotgan jismoniy shaxslarning huquqlarini himoya qilish hamda “Uy-joyning yagona hayotiy sikli” tamoyilini joriy etish nazarda tutilgan. Bu shaharlarni rivojlantirish va uy-joy qurilishining yangi tamoyili boʻlib, u hududni loyihalashtirishdan tortib uning barcha infratuzilmasi (yoʻllar, maktab, bogʻchalar, shifoxonalar, energiya taʼminoti) bilan birga toʻliq qurib bitkazish va foydalanishga topshirishni oʻz ichiga oladi.**

2017 – 2022-yillar mobaynida respublika hududida aholini uy-joy bilan taʼminlash boʻyicha davlat dasturi doirasida va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan jami 53 mln. kv. metr maydondan iborat 218 ming 118 ta kvartira qurib bitkazildi.

Bugungi kunda uy-joy masalasi bir qator rivojlangan mamlakatlarda ham juda keskin turibdi. Uy-joy oʻrta sinf va yoshlar uchun tobora ushalmas ozuga aylanmoqda. Sababi, urbanizatsiya va ish oʻrinlarining markazlashuvi, qurilish surʼatining talabdan pastligi, investitsiyaviy va spekulativ turarjoylar, ipoteka foizlarining oʻsishi, turarjoy siyosatida davlat ishtirokining sustligi. Shu bois Oʻzbekiston singari mamlakatlar bu sohada drayverlik rolini oʻz qoʻliga olmoqda va ijtimoiy-ommaviy qurilishga katta ahamiyat berayotir. 2024-2025-yillardagi qadamlar,

xususan “2024-yilda ipoteka kreditlarini ajratish mexanizmlarini takomillashtirish va aholining uy-joy sharoitlarini yaxshilashga oid qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi va 2025-yilda “Uy-joy va ipoteka bozorini yanada rivojlantirishga oid qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi farmonlar ijtimoiy uy-joy va imtiyozli ipoteka siyosatiga yangi impuls berdi.

Mazkur hujjatlar bilan ipoteka kreditlari orqali uy bilan taʼminlashni bozor prinsiplarida jadal rivojlantirish va aholining uy sharoitlarini yaxshilash, uy-joy va ipoteka bozorini yanada kengaytirish, kredit resurslarini oshirish, subsidiyalarni koʻpaytirish choralari, “yashil” uylar standartlarini joriy etish, ipoteka kreditlarini moliyalashtirish manbalari belgilab berildi. Ijtimoiy ehtiyojdagi fuqarolar uchun maxsus kvotalar berildi, kreditlashning zamonaviy mexanizmlari joriy etildi, koʻp qavatli uylar qurilishi orqali shahar aglomeratsiyalari rivojlantirildi.

## Muvaffaqiyatning qanoti boʻladi

Ijtimoiy jihatdan himoyaga muhtoj aholini uy-joy bilan taʼminlash har qanday davlat oldida turgan asosiy muammolardan biridir. Oʻzbekistonda bu masala uzoq yillar davomida

Prezidentimiz uy-joyga faqat bozordagi tovar emas, balki iqtisodiyot drayveri va ijtimoiy himoyaning muhim elementi sifatida qaradi. Keng koʻlamli uy-joylar barpo etish qurilish sanoatini rivojlantiradi, mahalliy tabiiy resurslar oʻzlashtirilishi surʼatini oshiradi, yangi mahsulotlar, yangi ish oʻrinlari yaratiladi, ipoteka orqali moliya bozori faollashadi, zamonaviy infratuzilmani yaratish uchun investitsiyalar jalb qilinadi.

Yangi qoʻllab-quvvatlash choralari daromadi past oilalarning boshlangʻich toʻlov va kredit foizlarini toʻlashdagi qiyinchiliklarni bartaraf etishga qaratildi. Masalan, davlat kvartira xaridi uchun zarur boʻlgan mablagʻning bir qismini qoplab, dastlabki moliyaviy yukni yengillatish masʼuliyatini oʻz zimmasiga oldi. Kredit foizlarining maʼlum qismi byudjet hisobidan qoplanib, oylik toʻlovlarni aholi uchun qulay boʻlgan darajaga tushirdi. Kam taʼminlangan oilalar uy-joy va ipoteka subsidiyalari oluvchilari roʻyxatiga birinchi navbatda kiritila boshlandi. 20 yilgacha boʻlgan muddat toʻlov yukini vaqt boʻyicha taqsimlash va turmush darajasi keskin pasayib ketishining oldini olish imkonini berdi.

Muhimi, qoʻllab-quvvatlash manzilli xarakterga ega: u faqatgina oʻz imkoniyatlari bilan uy-joy masalasini hal qila olmaydigan oilalarga taqdim etiladi. Tadqiqotlar shuni koʻrsatmoqdadki, mamlakatimizda ayrim oilalarning uyli boʻlishi uchun hatto imtiyozli ipoteka ham yetarli emas ekan. Uni bartaraf etish uchun ijtimoiy va ijara uy-joy tizimi rivojlantirilmoqda. Bunda kvartiralar imtiyozli ijara toʻlovi asosida taqdim qilinadi. Keyinchalik uy-joyni sotib olish mumkin. Bunda bolali oilalarga, yolgʻiz ota-onalarga va ogʻir hayotiy vaziyatdagi fuqarolarga ustuvorlik beriladi. Shu tariqa davlat uy-joy masalasini hal etishning bitta emas, bir nechta yoʻlini taklif qilmoqda.

Oʻzbekistonning uy-joy dasturida mehnat muhojirlari – yillar davomida xorijda ishlab, Vatandan uy-joy sotib olish imkoniyatiga ega boʻlmagan fuqarolar eʼtibordan chetda qolmagan. Ularni qoʻllab-quvvatlash maqsadida xorijda olingan daromadlar toʻlov qobiliyatini baholashda hisobga olina boshladi. Vatanga qaytib, rasmiy ishga joylashgan muhojirlar boshqa fuqarolar bilan teng ravishda subsidiya olish huquqiga ega boʻldi. Vaqtinchalik yashash sharoiti yaratilib, keyinchalik uyni sotib olish imkoniyati berildi.

Bu choralar nafaqat uy-joy muammosini hal etmoqda, balki mehnat resurslarining mamlakatga qaytishini ragʻbatlantirmoqda. Bunday imtiyozlar oila institutini mustahkamlash, barqaror oʻrta sinfni shakllantirish, davlat institutlariga boʻlgan ishonchni oʻrtirishda katta ijtimoiy samara keltirmoqda.

Oʻzbekistonning zamonaviy uy-joy siyosati formal yondashuvdan voz kechilayotganini koʻrsataypti. Universal yechimlar oʻrniga, insonning haqiqiy imkoniyatlarini hisobga olgan manzilli qoʻllab-quvvatlash joriy etilmoqda. Kam

taʼminlangan oilalar shaxsiy xonadonga ega boʻlish imkoniyatini qoʻlga kiritmoqda, mehnat muhojirlari Vatanga qaytish va mustahkam oʻrtnashish uchun ragʻbat olaytir, jamiyat esa yanada barqaror ijtimoiy tuzilmaga ega boʻlmoqda. Shu tariqa Oʻzbekistonda uy-joy inson qadr-qimmatini taʼminlaydigan va davlatning ijtimoiy barqarorligini saqlaydigan obyektga aylanayotir. Davlat bu bilan faqat maishiy muammoni hal etmasdan, hokimiyat va jamiyat oʻrtasidagi ishonchni mustahkamlamoqda, ijtimoiy tengsizlikni kamaytirmoqda va inson manfaatlariga yoʻnaltirilgan iqtisodiyotni shakllantirmoqda.

Amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy mazmuni ham shunda: uy-joy endi imtiyoz emas, ijtimoiy kafolatga aylanaypti. Amerikalik faylasuf Jon Roulz tili bilan aytganda, eng zaif qatlamlar manfaati, adolat va imkoniyatlar barobarligi, qoidalarining hamma uchun maqbulligi taʼminlanmoqda.

Oʻzbekiston 2040-yilga qadar har yili quriladigan uy-joylar sonini ikki baravar oshirib 421 mingga yetkazish, ipoteka kreditlari portfelini esa 56,7 mlrd. AQSH dollarigacha koʻpaytirishni moʻljallamoqda. Jumladan, yirik aglomeratsiyalarni qoʻllab-quvvatlash, urbanizatsiya jarayonlarini uygʻunlashtirish, ulushli qurilishda ishtirok etayotgan jismoniy shaxslarning huquqlarini himoya qilish hamda “Uy-joyning yagona hayotiy sikli” tamoyilini joriy etish nazarda tutilgan. Bu shaharlarni rivojlantirish va uy-joy qurilishining yangi tamoyili boʻlib, u hududni loyihalashtirishdan tortib uning barcha infratuzilmasi (yoʻllar, maktab, bogʻchalar, shifoxonalar, energiya taʼminoti) bilan birga toʻliq qurib bitkazish va foydalanishga topshirishni oʻz ichiga oladi. Bu tamoyil uy-joy qurilishida davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirib, ulushdorlar (oluvchilar) huquqlarini himoya qilish, ekologik va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni nazarda tutadi.

Kezi kelganda aytish lozimki, Prezident tomonidan oʻtkazilgan selektor yigʻilishida 2025-yilda ipoteka kreditlari boʻyicha dastlabki badal va foiz toʻlovlarning bir qismini qoplash uchun subsidiyalari sonini 1,5 baravar oshirish va buning uchun byudjetdan 2,5 trln. soʻm yoʻnaltirish, uy-joy va ipoteka bozorini moliyaviy resurslar bilan taʼminlashga 20,9 trln. soʻm miqdoridagi ipoteka kreditlari ajratish, dasturda ishtirok etayotgan tijorat banklari va qurilish tashkilotlarini byudjet mablagʻlari hisobiga qoʻllab-quvvatlashni davom ettirish vazifasi qoʻyilgandi. Xorijiy investorlarning 500 mln. AQSH dollaridan ziyod mablagʻlari jalb qilinishi, bu choralar pirovardida yil oxirigacha hududlarda jami 8,1 mln. kvadrat metrdan iborat 135 ming xonadonli uy-joylar qurishga zamin yaratishi taʼkidlangan edi.

Bu mamlakatimizda yana minglab oilalar uy toʻylarini nishonlashi, yillar davomida qiynab kelgan muammolardan xolos boʻlishi, demakdir.

Asqar HAYDAROV,  
iqtisodiy sharhlovchi.

## Oʻzbekiston sporti:

# ISLOHOTLAR SAMARASI VA TARIXIY YUTUQLAR



Xususan, Prezidentimizning 2020-yil 24-yanvardagi “Oʻzbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Farmoni sohada tub burilish yasadi. Ushbu hujjatda aholini jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, iqtidorli sportchilarni saralashda innovatsion yondashuvlarni joriy qilish, sport taʼlimi muassasalarida oliy maʼlumotli murabbiy va mutaxassislar ulushini oshirish kabi muhim vazifalar belgilab berildi. Bugungi kunda tizimda amalga oshirilgan shu kabi oʻzgarishlar oʻz samarasini yaqqol koʻrsatmoqda.

Yurtimiz sportchilari xalqaro maydonlardagi yirik musobaqalarda barqaror va yuqori natijalarni qayd etyapti. Jumladan, 2025-yilning fevral oyida Xitoyning Xarbin shahrida oʻtgan IX qishki Osiyo oʻyinlarida 26 yillik tanaffusdan keyin oʻzbekistonlik sportchilar musobaqalarning oltin medaliga sazovor boʻldi. Figurali uchuvchilarimiz Dmitriy Chigirev va Yekaterina Geynish tomonidan juftlik bahslarida qoʻlga kiritilgan oltin medal 30 dan ziyod mamlakatlar orasida Oʻzbekiston jamoasining “Harbin – 2025” qishki oʻyinlarini kuchli beshlikda yakunlashini taʼminladi.



Ozarbayjonda boʻlib oʻtgan III MDH oʻyinlarida Oʻzbekiston delegatsiyasi jami 119 ta medalni qoʻlga kiritdi. Mazkur oʻyinlarda yoshlar tarkibi bilan ishtirok etgan bokschilarimizning umumjamoa yatakchilikka erishgani, dzyudo, qilichbozlik, taekvondo kabi yoʻnalishlarda esa kuchlilar qatoridan joy olgani oʻzbek sportida yangi chempionlar avlodi yetishib kelayotganini yaqqol namoyon etdi.

Yoki iyul oyida Germaniyaning Reyn-Rur muzofotida oʻtkazilgan Butunjahon yozgi Universiada oʻyinlarida mamlakatimiz talaba sportchilari 11 ta sport turida qatnashib, 4 ta oltin, 4 ta kumush, 7 ta bronza medallariga ega chiqqan holda umumjamoa 13-oʻrinni egalladi.

Oʻzbekiston delegatsiyasi 2025-yil 22 – 31-oktabrda Bahraynda oʻtkazilgan III yoshlar Osiyo oʻyinlarida 37 ta oltin, 16 ta kumush va 28 ta bronza medallari bilan umumjamoa hisobida ikkinchi oʻrinni qoʻlga kiritdi, noyabrda tashkil

etilgan VI Islom birlamligi oʻyinlarida esa 29 ta oltin, 35 ta kumush va 32 ta bronza medallari bilan umumjamoa hisobida ikkinchi oʻrinni egalladi.

Oʻtgan yil Oʻzbekiston sporti, xususan, futbolimiz uchun tarixiy yil boʻldi. Milliy terma jamoamizning ilk bor futbol boʻyicha jahon chempionatiga yoʻllanma olganini xalqimiz tarixiy voqea sifatida kutib oldi. Bu natija milliy futbol tizimida olib borilayotgan islohotlar samarasidir.

Shu bilan birga, yoshlar sportiga qaratilayotgan eʼtibor natijasini shaxmat boʻyicha qoʻlga kiritilayotgan ulkan yutuqlarda ham yaqqol koʻrishimiz mumkin. Navqiron grossmeyster Javohir Sindorovning Jahon kubogidagi gʻalabasi, umuman, yosh shaxmatchilarimiz tomonidan xalqaro chempionatlarda qoʻlga kiritilgan koʻplab medallar Oʻzbekistonn shaxmat boʻyicha eng ilgʻor sanoliq davlatlardan biri sifatida tanitdi.

Parasport turida ham yurtimiz sportchilari jasorat

va matonat namunasini koʻrsatmoqda. Yoshlar Paraosiy oʻyinlarida qozongan gʻalabalar, qoʻlga kiritgan yuzlab medallar Oʻzbekistonda inklyuziv sport tizimi rivojlanayotganidan dalolat beradi.

Sirasini aytganda, 2025-yil mamlakatimiz sport hayotida unutilmas voqealarga boy boʻldi. Yil davomida mamlakatimiz sportchilari Olimpiya oʻyinlari dasturiga kiritilgan sport turlari boʻyicha 250 dan ortiq nufuzli xalqaro musobaqalarda munosib ishtirok etdi. Terma jamoamiz vakillari Osiyo va jahon chempionatlarida 550 ga yaqin medallarni qoʻlga kiritib, Oʻzbekiston sportining xalqaro nufuzini yanada yuksaltirdi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis va Oʻzbekiston xalqiga Murojaatnomasida sport sohasidagi ana shu yutuqlarga alohida toʻxtalib, azmu shijoatli sportchilarimizning xalqaro musobaqalardagi gʻalabalari mamlakat nufuzini oshirishda muhim omil ekanini taʼkidladi.

Darhaqiqat, sport orqali yurtimiz bayrogʻi yuksak arenalarda hilpirayotgani xalqimizda iftixor tuygʻusini kuchaytirmoqda. Sportdagi muvaffaqiyatlar xalqimiz ruhini yuksaltirish bilan birga, yurtimiz nomini xalqaro maydonlarda koʻplab mamlakatlar bilan teng raqobat qiladigan darajaga olib chiqmoqda.



Eʼtiborli jihati, yoshlar sporti, fitness va ommaviy sportni rivojlantirish orqali millatlararo doʻstlik va hamkorlik muhiti yanada mustahkamlanadi.

Sportdagi yutuqlar zamonaviy infratuzilma bilan uygʻun ravishda rivojlanayotganiga ham alohida toʻxtalish zarur. Yangi stadionlar, sport majmualari, Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari barpo etilmoqda. Yaqin yillarda 55 ming oʻrinni milliy stadion qurilishi rejalashtirilgani esa xalqaro musobaqalarni qabul qilish imkoniyatini yanada kengaytiradi.

Sport sohasida erishilayotgan yutuqlar bu faqat medallar emas, balki Yangi Oʻzbekistonning xalqaro maydondagi nufuzi, ochiq va raqobatbardosh davlat sifatidagi qiyofasidir. Yurtimiz sportchilari gʻalabalari orqali Oʻzbekiston dunyo xaritasida yanada ravshan namoyon boʻlmoqda. Bu esa xalqimizning oʻz kuchiga boʻlgan ishonchini mustahkamlab, kelgusi zafarlar uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Gʻolib BAHROMOV  
 (“Xalq soʻzi”).

2030-yilgacha elektropoyezdlar qatnovi tashkil etilgan yoʻnalishlar sonini 40 tadan 53 taga yetkazish belgilandi.



## OʻZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

## quyidagi lavozimlarga tanlov eʼlon qiladi:

AMALIY MATEMATIKA  
VA INTELLEKTUAL  
TEKNOLOGIYALAR  
FAKULTETI:Amaliy matematika va kompyuter tahlili  
kafedrası:

professor – 0,75 ta;  
dotsent – 2,25 ta;  
katta oʻqituvchi – 5 ta;  
oʻqituvchi – 1,75 ta;  
stajyor-oʻqituvchi – 1,5 ta.

## Axborot xavfsizligi kafedrası:

dotsent – 2 ta;  
katta oʻqituvchi – 1 ta.

Hisoblash matematikasi va axborot  
tizimlari kafedrası:

professor – 0,25 ta.

Dasturiy injiniring va sunʼiy intellekt  
kafedrası:

katta oʻqituvchi – 1,25 ta;  
oʻqituvchi – 2 ta.

BIOLOGIYA VA EKOLOGIYA  
FAKULTETI

## Biofizika kafedrası:

professor – 0,25 ta;  
dotsent – 0,75 ta.

## Biokimyo kafedrası:

katta oʻqituvchi – 2 ta.

Biotexnologiya va mikrobiologiya  
kafedrası:

professor – 2,25 ta;  
dotsent – 3 ta;  
katta oʻqituvchi – 5,75 ta;  
oʻqituvchi – 3 ta;  
stajyor-oʻqituvchi – 0,75 ta.

Odam va hayvonlar fiziologiyasi  
kafedrası:

professor – 0,25 ta;  
dotsent – 1,75 ta;  
katta oʻqituvchi – 2,5 ta;  
oʻqituvchi – 1 ta;  
stajyor-oʻqituvchi – 0,25 ta.

## Tuproqshunoslik kafedrası:

dotsent – 1 ta.

## Zoologiya kafedrası:

oʻqituvchi – 1 ta.

## Botanika va genetika kafedrası:

professor – 0,75 ta;  
dotsent – 3,25 ta;  
katta oʻqituvchi – 2,25 ta.

## Ekologiya kafedrası:

professor – 0,75 ta;  
dotsent – 3,75 ta;  
katta oʻqituvchi – 1,25 ta;  
oʻqituvchi – 0,75 ta.

GEOGRAFIYA VA  
GEOAXBOROT TIZIMLARI  
FAKULTETI

## Tabiiy geografiya kafedrası:

professor – 0,5 ta;  
dotsent – 1 ta;  
katta oʻqituvchi – 2,5 ta;  
oʻqituvchi – 2,5 ta.

Geodeziya, kartografiya va kadastr  
kafedrası:

dotsent – 0,75 ta;  
katta oʻqituvchi – 3,5 ta;  
oʻqituvchi – 2,25 ta;  
stajyor-oʻqituvchi – 0,25 ta.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya  
kafedrası:

oʻqituvchi – 0,25 ta.

GEOLOGIYA VA  
MUHANDISLIK GEOLOGIYASI  
FAKULTETI

## Geokimyo va mineralogiya kafedrası:

professor – 0,25 ta;  
katta oʻqituvchi – 1,25 ta.

Gidrogeologiya va geodinamika  
kafedrası:

professor – 1 ta;  
dotsent – 1 ta;  
oʻqituvchi – 0,25 ta.

## Geofizika kafedrası:

oʻqituvchi – 0,25 ta.

## Geologiya kafedrası:

stajyor-oʻqituvchi – 0,25 ta.

JURNALISTIKA VA OʻZBEK  
FILOLOGIYASI FAKULTETIKompyuter lingvistikasi va amaliy  
tilshunoslik kafedrası:

katta oʻqituvchi – 1,75 ta;  
oʻqituvchi – 5 ta.

## Oʻzbek adabiyotshunosligi kafedrası:

professor – 2,25 ta;  
dotsent – 2 ta;  
katta oʻqituvchi – 1,75 ta;  
oʻqituvchi – 2 ta.

## Oʻzbek tilshunosligi kafedrası:

professor – 0,75 ta;  
dotsent – 1,25 ta;  
katta oʻqituvchi – 1,25 ta;  
oʻqituvchi – 0,25 ta;  
stajyor-oʻqituvchi – 3,5 ta.

## Rus adabiyotshunosligi kafedrası:

professor – 1,25 ta;  
dotsent – 1,5 ta;  
katta oʻqituvchi – 3 ta;  
oʻqituvchi – 1 ta;  
stajyor-oʻqituvchi – 0,25 ta.

## Rus tilshunosligi kafedrası:

professor – 0,5 ta;  
dotsent – 1,75 ta;  
katta oʻqituvchi – 3 ta;  
oʻqituvchi – 2,75 ta;  
stajyor-oʻqituvchi – 2,5 ta.

## Jurnalistika kafedrası:

dotsent – 1,5 ta;  
katta oʻqituvchi – 2 ta;  
oʻqituvchi – 2,5 ta;  
stajyor-oʻqituvchi – 2,5 ta.

## Fakultetlararo tillar kafedrası:

dotsent – 0,75 ta;  
katta oʻqituvchi – 1,5 ta;  
oʻqituvchi – 2 ta.

IJTIMOIY FANLAR  
FAKULTETI

## Ijtimoiy ish kafedrası:

professor – 0,25 ta;  
dotsent – 1,75 ta;  
katta oʻqituvchi – 1 ta;  
oʻqituvchi – 5,5 ta;  
stajyor-oʻqituvchi – 1 ta.

## Sotsiologiya kafedrası:

dotsent – 3 ta;  
oʻqituvchi – 2,25 ta.

## Huquqiy fanlar kafedrası:

professor – 0,5 ta;  
dotsent – 2,75 ta;  
katta oʻqituvchi – 5,25 ta;  
oʻqituvchi – 11,5 ta;  
stajyor-oʻqituvchi – 13,5 ta.

## Siyosatshunoslik kafedrası:

dotsent – 0,5 ta;  
katta oʻqituvchi – 0,5 ta;  
oʻqituvchi – 2,25 ta;  
stajyor-oʻqituvchi – 1,25 ta.

## Falsafa kafedrası:

professor – 2 ta;  
dotsent – 9,75 ta;  
katta oʻqituvchi – 3 ta;  
oʻqituvchi – 4 ta;  
stajyor-oʻqituvchi – 3,5 ta.

## Psixologiya kafedrası:

professor – 3,75 ta;  
dotsent – 4,5 ta;  
katta oʻqituvchi – 10,25 ta;  
oʻqituvchi – 4,25 ta;  
stajyor-oʻqituvchi – 6,5 ta.

## Pedagogik taʼlim kafedrası:

professor – 1,25 ta;  
dotsent – 7,25 ta;  
katta oʻqituvchi – 5,75 ta;  
oʻqituvchi – 2,5 ta;  
stajyor-oʻqituvchi – 3,5 ta.

## IQTISODIYOT FAKULTETI

Ekonometrika va iqtisodiy  
modellashirish kafedrası:

dotsent – 0,75 ta;  
katta oʻqituvchi – 3,5 ta;  
oʻqituvchi – 3 ta;  
stajyor-oʻqituvchi – 0,75 ta.

## Iqtisodiyot nazariyasi kafedrası:

professor – 1,25 ta;  
dotsent – 1,25 ta;  
katta oʻqituvchi – 2,5 ta;  
oʻqituvchi – 1 ta.

## Makroiqtisodiyot kafedrası:

professor – 2 ta;  
dotsent – 2,25 ta;  
katta oʻqituvchi – 5 ta;  
oʻqituvchi – 5,5 ta;  
stajyor-oʻqituvchi – 0,5 ta.

## Moliya va kredit kafedrası:

professor – 0,75 ta;  
dotsent – 1 ta;  
katta oʻqituvchi – 1 ta;  
oʻqituvchi – 4 ta;  
stajyor-oʻqituvchi – 1,5 ta.

Davlat va korporativ strategiyalar  
kafedrası:

kafedra mudiri – 1 ta;  
professor – 1 ta;  
dotsent – 1 ta;  
katta oʻqituvchi – 0,25 ta.

Mintaqaviy iqtisodiyot va menejment  
kafedrası:

kafedra mudiri – 1 ta;  
professor – 0,25 ta;  
dotsent – 0,25 ta;  
katta oʻqituvchi – 1 ta.

## KIMYO FAKULTETI

## Analitik kimyo kafedrası:

katta oʻqituvchi – 0,5 ta.

## Fizikaviy kimyo kafedrası:

dotsent – 1 ta;  
katta oʻqituvchi – 1 ta;  
oʻqituvchi – 0,75 ta.

## Organik va neft-gaz kimyo kafedrası:

professor – 0,25 ta;  
katta oʻqituvchi – 0,5 ta.

## Umumiy va noorganik kimyo kafedrası:

professor – 0,75 ta;  
dotsent – 3 ta;  
katta oʻqituvchi – 4,75 ta;  
stajyor-oʻqituvchi – 0,25 ta.

Tabiiy birikmalar va amaliy kimyo  
kafedrası:

professor – 1 ta;  
dotsent – 1 ta;  
katta oʻqituvchi – 0,75 ta;  
oʻqituvchi – 1,25 ta;  
stajyor-oʻqituvchi – 1 ta.

## MATEMATIKA FAKULTETI

## Algebra va funksional analiz kafedrası:

professor – 1,25 ta;  
dotsent – 2,75 ta;  
katta oʻqituvchi – 1 ta.

Differensial tenglamalar va matematik  
fizika kafedrası:

professor – 1,25 ta;  
dotsent – 0,25 ta;  
katta oʻqituvchi – 0,25 ta;  
oʻqituvchi – 1,75 ta.

Ehtimollar nazariyasi va matematik  
statistika kafedrası:

dotsent – 0,75 ta;  
katta oʻqituvchi – 1,25 ta;  
oʻqituvchi – 2,25 ta.

## Geometriya va topologiya kafedrası:

dotsent – 0,25 ta;  
katta oʻqituvchi – 2 ta;  
oʻqituvchi – 0,5 ta.

## Matematik analiz kafedrası:

professor – 0,5 ta;

dotsent – 1,5 ta;  
katta oʻqituvchi – 3 ta;  
oʻqituvchi – 3,5 ta;  
stajyor-oʻqituvchi – 0,5 ta.

## TARIX FAKULTETI

## Jahon tarixi kafedrası:

professor – 2 ta;  
dotsent – 3 ta;  
katta oʻqituvchi – 3,5 ta;  
oʻqituvchi – 3 ta.

Arxivshunoslik va manbashunoslik  
kafedrası:

professor – 1,75 ta;  
dotsent – 2 ta;  
oʻqituvchi – 0,25 ta.

## Oʻzbekiston tarixi kafedrası:

professor – 0,75 ta;  
dotsent – 3,5 ta;  
katta oʻqituvchi – 4,5 ta;  
oʻqituvchi – 4,25 ta;  
stajyor-oʻqituvchi – 0,25 ta.

Oʻzbekistonning eng yangi tarixi  
kafedrası:

professor – 0,25 ta;  
dotsent – 3,75 ta;  
katta oʻqituvchi – 1,75 ta;  
oʻqituvchi – 1 ta;  
stajyor-oʻqituvchi – 0,5 ta.

## Arxeologiya va etnologiya kafedrası:

professor – 2,75 ta;  
dotsent – 3,5 ta;  
katta oʻqituvchi – 1,75 ta;  
oʻqituvchi – 3 ta.

TAEKVONDO VA SPORT  
FAOLIYATI FAKULTETI

## Taekvondo va sport faoliyati kafedrası:

professor – 2,25 ta;  
dotsent – 2 ta;  
katta oʻqituvchi – 1 ta;  
oʻqituvchi – 5 ta;  
stajyor-oʻqituvchi – 11,25 ta.

## Jismoniy madaniyat va sport kafedrası:

dotsent – 1 ta;  
katta oʻqituvchi – 3 ta;  
oʻqituvchi – 0,25 ta.

## FIZIKA FAKULTETI

## Fotonika kafedrası:

professor – 0,25 ta;  
dotsent – 2 ta;  
katta oʻqituvchi – 0,25 ta;  
oʻqituvchi – 0,5 ta;  
stajyor-oʻqituvchi – 0,25 ta.

## Nazariy fizika kafedrası:

professor – 0,25 ta;  
dotsent – 0,5 ta;  
katta oʻqituvchi – 0,25 ta;  
oʻqituvchi – 0,5 ta.

## Umumiy fizika kafedrası:

professor – 0,5 ta;  
dotsent – 1 ta;  
katta oʻqituvchi – 1 ta;  
oʻqituvchi – 1 ta.

Yarimoʻtkazgichlar va polimerlar  
fizikasi kafedrası:

professor – 0,75 ta;  
dotsent – 1,25 ta;  
katta oʻqituvchi – 0,25 ta;  
oʻqituvchi – 1 ta.

Yadro fizikasi va astronomiya  
kafedrası:

professor – 1 ta;  
dotsent – 1 ta;  
katta oʻqituvchi – 2 ta;  
oʻqituvchi – 1,5 ta;  
stajyor-oʻqituvchi – 0,5 ta.

Quruqlik gidrologiyasi va  
meteorologiya kafedrası:

professor – 0,25 ta;  
dotsent – 0,5 ta;  
katta oʻqituvchi – 1,25 ta;  
oʻqituvchi – 1,25 ta.

XORIJIY FILOLOGIYA  
FAKULTETIAmaliy ingliz tili va adabiyotshunoslik  
kafedrası:

kafedra mudiri – 1 ta;  
dotsent – 1,5 ta;  
katta oʻqituvchi – 3,75 ta;  
oʻqituvchi – 5,75 ta;  
stajyor-oʻqituvchi – 9,5 ta.

## Fakultetlararo ingliz tili kafedrası:

dotsent – 0,5 ta;  
katta oʻqituvchi – 2,25 ta;  
oʻqituvchi – 4,5 ta;  
stajyor-oʻqituvchi – 3,25 ta.

## Fransuz filologiyasi kafedrası:

professor – 0,75 ta;  
dotsent – 2,75 ta;  
katta oʻqituvchi – 5,25 ta;  
oʻqituvchi – 2 ta;  
stajyor-oʻqituvchi – 0,75 ta.

## Ingliz tilshunosligi kafedrası:

dotsent – 1,75 ta;  
katta oʻqituvchi – 5 ta;  
oʻqituvchi – 4,5 ta;  
stajyor-oʻqituvchi – 4 ta.

## Nemis filologiyasi kafedrası:

professor – 0,5 ta;  
dotsent – 0,75 ta;  
katta oʻqituvchi – 2 ta;  
oʻqituvchi – 3,5 ta;  
stajyor-oʻqituvchi – 4 ta.

Tarjima nazariyasi va qiyosiy  
tilshunoslik kafedrası:

professor – 0,25 ta;  
dotsent – 0,25 ta;  
katta oʻqituvchi – 1,5 ta;  
oʻqituvchi – 2,5 ta;  
stajyor-oʻqituvchi – 3,25 ta.

## Xorijiy til va adabiyot kafedrası:

professor – 0,5 ta;  
dotsent – 1 ta;  
katta oʻqituvchi – 6,25 ta;  
oʻqituvchi – 6,75 ta;  
stajyor-oʻqituvchi – 6 ta.

Tanlovda qatnashadigan nomzodlar quyidagi hujjatlarni taqdim  
etishlari lozim:

1. Universitet rektori nomiga ariza;
2. Xodimlarni hisobga olish boʻyicha shaxsiy varaqa (maʼlumotnoma);
3. Oliy maʼlumoti toʻgʻrisidagi diplomlar nusxalari;
4. Ilmiy unvoni, ilmiy darajasi toʻgʻrisidagi diplomlar nusxalari;
5. Ilmiy ishlari roʻyxati (soʻnggi 3 yil);
6. Malaka oshirganligi toʻgʻrisidagi guvohnoma nusxasi;
7. Xorijiy til bilish darajasini tasdiqlovchi sertifikat nusxasi (xorijiy filologiya fakulteti oʻqituvchilari uchun).

Hujjatlar eʼlon chop etilgan sanadan boshlab 1 (bir) oy muddatda qabul  
qilinadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet koʻchasi, 4-uy,  
OʻzMUning xodimlar boʻlimi.  
Tel.: 71-246-03-92.

2026 – 2028-yillar uchun umumiy moliyalashtirish hajmi 30 mlrd. soʻmlik ilmiy loyihalar tanlovlari eʼlon qilinadi.

Xalq soʻzi  
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:  
Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi  
Qonunchilik palatasi Kengashi  
Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi  
Senati Kengashi

Bosh muharrir Oʻtkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan roʻyxatga olingan. Nashr indeksi – 229.  
Buyurtma G-142. 31 016 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taqab. Ofset usulida bosilgan. Qogʻoz bichimi A-2.  
Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi maʼlumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:  
Devonxona 71-259-74-51; Kotibiyat 71-259-74-53;  
eʼlonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qoʻlyozmalar taqriz qilinmaydi va  
mualfiga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan  
tashkilot javobgar.  
Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator  
A. Ismailov tomonidan sahifalandi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-  
matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.  
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:  
100066,  
Toshkent shahri,  
Islom Karimov koʻchasi, 55-uy.  
Navbatchi muharrir N. Ostonov.  
Musahhah S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:  
Buyuk Turon koʻchasi, 41. OʻZA yakuni – 20.50 Topshirildi – 23.20

1 2 3 4 5 6